

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH

SH.RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBIOTEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI
INSTITUTI

ERGASHEV JAVOXIR ISKANDAR O‘G‘LI

ROMEN SALATI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINING AYRIM
ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

06.01.06 – Sabzavotchilik

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT –2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Ergashev Javoxir Iskandar o‘g‘li

Romen salat yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlarini ishlab chiqish
(Samarqand viloyati misolida) 3

Эргашев Жавохир Искандар угли

Разработка некоторых элементов технологии выращивания салата ромэн
(на примере Самаркандской области)..... 21

Ergashev Javoxir Iskandar Ugli

Development of Certain elements of romaine lettuce cultivation Technology (A
case study of the Samarkand region) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH

SH.RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
AGROBIOTEXNOLOGIYALAR VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI
INSTITUTI

ERGASHEV JAVOXIR ISKANDAR O‘G‘LI

ROMEN SALATI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINING AYRIM
ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

06.01.06 – Sabzavotchilik

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT –2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Qx1534 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sanayev Sobir Toyirovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Dusmuratova Saodat Ismailovna
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Turdiyeva Feruzaxon Tirkashboyevna
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 13-yanvar soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (555464-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel.:(+99871)260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 2-dekabrdagi 60-raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda salat ekini “dunyo sabzavotchiligida 1,26 mln gektar maydonga ekilib, 28,08 mln tonna yalpi hosil yetishtirilmoqda. Salat ekinini yetishtirish bo'yicha Xitoy (14,09 mln t.), AQSh (4,71 mln t.), Hindiston (1,17 mln t.), Ispaniya (0,86 mln t.), Italiya (0,66 mln t.) kabi davlatlar yetakchilik qilib, olinayotgan yalpi hosilning 79,4 % i ushbu 5 ta mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Salat ekinidan eng yuqori hosildorlik Puerto-Riko (100,1 t/ga), Quvayt (49,3 t/ga), Bahrayn (47,3 t/ga), Belgiya (44,1 t/ga), Kongo DR (41,3 t/ga) davlatlarida olinadi, o'rtacha hosildorlik esa 14,9 t/ga ni tashkil etadi”¹. Lekin, salat ekini mamlakatimizda kam maydonda (337,0 ga) ekilib, 5,03 ming tonna yalpi mahsulot yetishtirilmoqda. Shuni hisobga olgan holda salatning xillari ekiladigan maydonini kengaytirish, yuqori hosilli va iqlim o'zgarishlariga bardoshli navlarini introduksiya qilish hamda yetishtirish texnologiyasining asosiy elementlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ochiq va yopiq maydonlarda, gidropon sharoitda salat ekinining tur xillarini yetishtirish hajmini ko'paytirishga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, salat xillarini bevosita urug'idan yoki ko'chatidan ekib o'stirish, o'g'itlash, sug'orish, hosildorligi va hosil sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, salat ekinini yetishtirishning resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, ekish muddati, ekish sxemasi, oziqlantirish va o'stirish usullarining hosildorlikka ta'siri, salat hosilining tovarbopligini, biokimyoviy tarkibini sifatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida sabzavotlar, jumladan salat tur xillarini yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Salat ekinini asosiy va takroriy ekinda yetishtirish agrotexnologiyalarini muhim elementlarini ishlab chiqish, serhosil nav- duragaylarini yaratish, urug'chiligini tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar bajarilgan. Lekin, salat xillari orasida kam tarqalgan, ammo muhim ahamiyatga ega bo'lgan romen salatini nav va duragaylarini yaratish, introduksiya qilish, asosiy va takroriy ekinda maqbul ekish muddati, oziqlanish maydoni va ekish sxemasini aniqlash bo'yicha yetarlicha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”² to'g'risidagi PF-60-sonli farmonida belgilab berilgan 3 ustuvor yo'nalishi 30 maqsadida “Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish” vazifasi belgilab berilgan. Shu bois, muhim sabzavot ekinlaridan biri bo'lgan romen salatini yetishtirish agrotexnologiyasining asosiy elementlari, eng maqbul ekish muddatini va eng maqbul ekish sxemasini aniqlash hamda ishlab chiqarishga joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari

¹<https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni

to'g'risida"gi PF-5303-son Farmoni, 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasini qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni, 2020-yil 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4887-son qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Salat tur xillarini asosiy va takroriy ekinda bevosita urug'idan yoki ko'chatidan o'stirish, salat ekinining o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi, hosildorligi va hosil sifatiga ekish muddatlarining hamda oziqlanish maydonining ta'sirini o'rganish bo'yicha AQSH, Rossiya, Xitoy, Ukraina, Turkiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Indoneziya, Polsha kabi mamlakatlarda Z.Teng, M.J.Opena, A.D.Gutierrez, M.M.Vasquez, M.V.Kovalchuk, V.M.Kondratev, O.N.Bobkova, G.V.Gulyaeva, M.M.Igumnova, V.I.Terexova, L.C.Liao Chien-sen, Y.Nishikawa, Sh.Yu-ting K.M.Krivitskiy, N.V.Leshuk, V.V.Xareba, O.V.Poznyak, Y.M.Keche, E.Ekbich, S.Ko'kpınar, A.Bitiktash, S.H.Korkmaz, I.E.Akıncı, A.Gunesh, G.Okyay, J.Choi, J.An, H.D. Lee, M.Sharma, G.Chand, B.K.Sinha, A.Das, A.Taofik, B.F.Qurohman Taufiq, A.F.Akhlasa, A.Rizky, L.Chaidir, B.Matysiak, E.Ropelewska, A.Wrzodak, A.Kowalski, S.Kaniszewski va boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda esa salat ekinini yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha X.Ch.Bo'riyev, R.F.Mavlyanova, Z.T.Bustonov va F.T.Turdiyevlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Biroq, Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekinda romen salati navlarini o'sishi, rivojlanishi, maqbul ekish muddati, maqbul ekish sxemasi, mahsuldorligi, hosildorligi va hosil sifatini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutining № SAgro-02-raqamli "Turli tuproq-iqlim sharoitlarida meva-uzum va sabzavot ekinlari yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan (2023-2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekinda romen salati (*Lactuca sativa var. longifoliaga*) navlarini parvarishlash texnologiyasining muhim elementlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

takroriy ekinda romen salati navlarining agrobiologik xususiyatlarini o'rganish;
takroriy ekin sifatida ekilgan romen salatidan yuqori hosil olish uchun maqbul ekish muddatini aniqlash;

takroriy ekinda romen salatidan yuqori va sifatli hosil yetishtirish uchun maqbul ekish sxemasini va oziqlanish maydonini aniqlash;

takroriy ekinda romen salatining turli ekish muddati va sxemalarda o‘stirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘tloqi bo‘z tuproqlar, romen salatining “Sladkiy xrust”, “Aktina”, “Batsio” navlari, o‘simliklari, barglari, salatboshlari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida takroriy ekinda yetishtirilgan romen salatining Sladkiy xrust, Aktina, Batsio navlarining o‘sishi, rivojlanishi, mahsuldorligi, hosildorligi, 4 ta ekish muddatlari va 4 ta ekish sxemalarining ta’siri kabilar olingan.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tajribalarini o‘tkazish, fenologik kuzatuvlar va biometrik o‘lchovlar, laboratoriya tahlillari “Методика полевого опыта в овощеводстве и бахчеводстве”, “Методика физиологических и биохимических исследований в овощеводстве и бахчеводстве”, “Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi”, “Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarida tajribalar o‘tkazish uslubi” kabi uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borilgan. Tadqiqot natijalarining statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida “Методика полевого опыта” qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida romen salatini maqbul ekish muddati va maqbul ekish sxemasida ko‘chatlaridan ekib o‘stirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilgan;

takroriy ekinda romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlarida urug‘larining unuvchanligi 87,0-89,6%, standart ko‘chat chiqimi 86,1-88,9%, ko‘chatlar maqbul ekish muddatida (25 iyulda) va maqbul ekish sxemada (60x15 sm) ekilganda tutuvchanligi 92,8-94,7% bo‘lishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari takroriy ekin sifatida 30-35 kunlik ko‘chatlaridan 25 iyulda ekib o‘stirilganda hosilni yig‘ish oldidan saqlanib qolgan o‘simliklar ulushi 89,5-91,8 %, bir dona salatbosh vazni 378,5-403,6 g. gacha shakllanib, hosildorlik 28,2-30,9 t/ga, tovar hosil chiqimi 94,8-96,0 % bo‘lishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

romen salati navlari takroriy ekinda maqbul ekish sxemada (60x15 sm) ekib yetishtirilganda hosilni yig‘ish oldidan saqlanib qolgan o‘simliklar ulushi 87,4-88,4 %, o‘rtacha bir dona salatbosh vazni 297,2-325,2 g, maydon birligidan olingan salatbosh hosili 28,8-31,9 t/ga, tovar hosil chiqimi eng yuqori 26,9-30,2 t/ga yoki umumiy hosilga nisbatan mos ravishda 93,4-94,8 % bo‘lishi ilmiy asoslangan;

romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari takroriy ekinda maqbul ekish muddatida (25 iyul) va maqbul ekish sxemada (60x15 sm) ekib o‘stirilganda navlar bo‘yicha gektaridan 52,2 - 60,9 mln. so‘m sof foyda olinib, rentabellik darajasi 129,1 - 143,6 % yuqori bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida romen salatini takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasida 30-35 kunlik ko‘chatlaridan o‘stirish, ko‘chatlarni iyul oyining uchinchi dekadasi ya’ni 25 iyulda 60x15 sm sxemada ekish yuqori samara berishi ilmiy asoslangan;

Romen salati navlarini takroriy ekinda 30-35 kunlik ko‘chatlaridan maqbul ekish muddati 25 iyulda 60x15 sm sxemada (0,09 m²) ekib o‘stirilganda ko‘chatlarning tutuvchanligi, o‘suv davri oxirida maydon birligida saqlanib qolgan

ko'chatlar ulushi, o'simlik bo'yi, bir tupdagi salatbosh vaznining yuqori bo'lishiga erishilgan;

takroriy ekin sifatida yetishtirilgan romen salati navlarining 30-35 kunlik ko'chatlari iyul oyining uchinchi dekadasida (25.VII) va 60x15 sm sxemada ekib o'stirish bir sentner hosil tannarxini 23080,0-35240,0 so'mga arzon, sof foydani 15,8-23,8 mln. so'mga yuqori, rentabellik darajasini 32,7-47,5% ga ortishini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar mobaynida dala va ishlab chiqarish tajribalarining uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, dissertatsiya bajarishda foydalanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tajribalardan chiqarilgan xulosalar va qonuniyatlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, olingan natijalarning mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalarini xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekinda romen salati navlari ko'chatlaridan maqbul ekish muddatida va maqbul ekish sxemasida ekib o'stirilganda ko'chatlarning tutuvchanligi, ildiz tizimining shakllanishi, to'pbarglarning shakllanishi, mahsuldorligi, tovar hosil chiqimi, hosil sifati va hosilni yig'ishtirish oldidan maydon birligidagi saqlanib qolgan o'simliklar soniga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida romen salati navlarini 30-35 kunlik ko'chatlaridan yetishtirish, ko'chatlarini iyul oyining uchinchi dekadasida, ya'ni 25 iyulda 60x15 sxemada gektariga ekish, maydon birligida 111,0 ming tup o'simlik ko'chatlari joylashtirilishi ta'minlanganda yuqori va tovarbop hosil yetishtirish hisobiga iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi isbotlanib, ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida romen salati navlarini takroriy ekin sifatida o'stirilganda turli ekish muddatlari va turli ekish sxemalarini tovar hosil chiqimi, hosil sifati va iqtisodiy samaradorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

Dehqon, fermer va tomorqa xo'jaliklari uchun "Takroriy ekinda romen salati yetishtirish texnologiyasi" nomli tavsiyanoma tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 15 oktyabrdagi № 05/06-04-669-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanomadan tomorqa yer egalari, dehqon va fermerlar takroriy ekinda romen salati yetishtirishda uslubiy qo'llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

Romen salati navlarini takroriy ekinda 30-35 kunlik ko'chatlarini maqbul ekish muddatida (25.VII) va maqbul ekish sxemasida (60x15 sm) ekib yetishtirish texnologiyasi Samarqand viloyatining Urgut tumanida 1,6 gektar, Toyloq tumanida 1,3 gektar va Oqdaryo tumanida esa 0,8 gektar, jami 3,7 gektar maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida

bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 15 oktyabrdagi №05/06-04-669-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu agrotexnologik elementlarni qo'llash orqali romen salatidan 25,1-29,7 t/ga tovarbop hosil olingan.

Takroriy ekinda romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari iyul oyining 3-dekadasida 25-iyulda 60x15 sm sxemada 30-35 kunlik ko'chatlaridan yetishtirish agrotexnologiyasi Samarqand viloyatining Urgut, Toyloq va Oqdaryo tumanlari fermer xo'jaliklariga jami 3,7 gektar maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 15 oktyabrdagi № 05/06-04-669-sonli ma'lumotnomasi). Natijada qo'shimcha 6,6-7,8 t/ga hosil olinib, 50284,1-59453,4 ming so'm/ga sof foyda yoki amaldagi ekish muddati va sxemasiga nisbatan qo'shimcha 15520,7-19320,7 sof foyda hamda 126,1-140,4% rentabellik darajasiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari har yili Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutining aprobatsiya komissiyasi tomonidan sinovdan o'tkazilgan hamda ijobiy baholangan, tadqiqot o'tkazilgan yillar bo'yicha hisobotlar "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik" kafedrasida va institutining ilmiy hisobot yig'ilishlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari Respublika miqyosidagi anjumanlarda 2 marta va xalqaro anjumanlarda 2 marta ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ularni joriy etish to'g'risida ma'lumotlar, aprobatsiya va ish natijalarining chop etilganligi to'g'risida ma'lumotlar, dissertatsiyaning hajmi va qisqacha tarkibi bayon etilgan.


Dissertatsiyaning **"Romen salatini yetishtirish texnologiyalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar sharhi"** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va respublikamiz olimlarining ushbu mavzuda olib borgan ilmiy tadqiqotlari va adabiy manbalari sharhlangan. Shu bilan birga dunyoda va O'zbekistonda salat tur xillarining ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, tashqi muhit

omillariga munosabati, jumladan romen salatining keng tarqalgan nav va duragaylarining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga va hosil sifatiga yetishtirish usuli hamda parvarishlash tadbirlarining ta'siri, salat yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish yuzasidan adabiyotlar ma'lumotlari tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot joyi, sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mavzu yuzasidan asosiy dala tajribalari olib borilgan joyning tuproq-iqlim sharoiti, tajribalarni o'tkazish uslublari tavsiflangan. Ishlab chiqilgan mavzu yuzasidan har bir alohida tajribaning o'tkazilish uslublari, tajriba tizimi, dala tajribalari va laboratoriya tahlillarini olib borish uslublari, tajribalarda qo'llanilgan kuzatuvlar va hisoblashlar, laboratoriya tahlillari, shuningdek, tajribada romen salatini yetishtirishda o'tkazilgan agrotexnologik tadbirlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Romen salati navlari takroriy ekin sifatida yetishtirilganda maqbul ekish muddatini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobida romen salatini takroriy ekinda turli ekish muddatlari bo'yicha olib borilgan tajribalar natijalari bayon etilgan.

Tajribalarimizda tadqiqot obyekti sifatida olingan Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari urug'larining 10 % unib chiqishi 3-4 kunda, 75 % unib chiqishi esa 5-6 kunda qayd etilgan. Tajribalarimizda romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari ko'chatlarining turli ekish muddatlarida 60x20 sm (83,3 ming tup/ga) sxemada ekilganda ularning tutuvchanligi aniqlangan. Sladkiy xrust navini 5 iyulda ekilganda o'rtacha 75,1 ming dona yoki 90,4 %, 15 iyulda ekilganda ko'chatlarning tutib ketishi 77,3 ming donani tashkil etib, nazoratga nisbatan 2,3 ming donaga yoki 2,5 % ga oshib borganligi qayd etilgan. Keyingi ekish muddatlarida, ya'ni 25 iyul va 5 avgust muddatlarida bu ko'rsatkich mos ravishda 78,0 va 78,9 ming donani tashkil etib, nazoratga nisbatan 103,6 va 104,9 % bo'lganligi qayd etilgan.



1-rasm. Hosilni yig'ish oldidan maydon birligida saqlanib qolgan o'simliklar soni (2023-2025 yy.)

Aktina navida ko'chatlarning tutuvchanligi tegishli 72,6 ming dona (87,2 %); 74,2 ming dona (89,1 %); 75,7 ming dona (90,9 %); 76,7 ming dona (92,1 %); Batsio navida esa 73,4 ming dona (88,1 %); 75,6 ming dona (90,8 %); 76,5 ming dona (91,8 %); 77,5 ming dona (93,0 %) bo'lishi aniqlangan.

Tajribada romen salati navlarining rivojlanish fazalarining davomiyligiga ekish muddatlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Romen salatining Sladkiy xrust navi ko'chatlari takroriy ekinda turli ekish muddatlarida (5.VII n-t, 15. VII, 25.VII va 5.VIII) ekib parvarishlanganda ko'chatlarni tutib ketishi 3-5 kunni, 7-chi bargning shakllanishi 13-15 kunni, salatboshning shakllanishi 23-26 kunni, salatboshning texnik yetilishi 48-52 kunni va hosilni yig'ish 51-55 kunni tashkil etgan. Romen salatining Aktina navida fenologik jarayonlarning kechishi ekish muddatiga bog'liq ravishda 3-5 kun; 15-17 kun; 24-27 kun; 52-55 kun; 55-58 kun dan iborat bo'lgan. Romen salatining Batsio navida esa tegishlicha 3-5 kun; 16-18 kun; 25-28 kun; 53-56 kun; 56-59 kunni tashkil etgan.

Takroriy ekin sifatida romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari 30-35 kunlik ko'chatlari turli ekish muddatlarida (5.VII, 15.VII, 25.VII va 5.VIII) 60x20 sm ekish sxemada 83,3 ming dona/ga hisobida ekib parvarishlanganda o'simliklarning tutuvchanligi va amalda saqlanib qolgan ko'chatlar soni o'rganilgan. Hosilni yig'ish oldidan maydon birligida saqlanib qolgan o'simliklar ulushi romen salatining Sladkiy xrust navi ko'chatlari 5 iyulda (n-t) ekib o'stirilgan variantda 71,8 ming dona/ga yoki 86,3 % ni, 15 iyulda ekilganda 73,5 ming dona/ga yoki 88,3% ni tashkil etib nazoratga nisbatan 2,0 ming dona/ga yoki 2,3 % ga yuqori bo'lgan, 25 iyulda ekilganda 74,6 ming dona/ga yoki 89,5 %, nazoratga nisbatan 3,3 ming dona/ga yoki 3,7 %, 5 avgustda ekilganda esa 76,2 ming dona/ga yoki 91,5 % ni tashkil etib nazoratga nisbatan 5,3 ming dona/ga yoki 6,0 % ga yuqori bo'lganligi kuzatilgan. Hosilni yig'ish oldidan maydon birligida saqlanib qolgan o'simliklar ulushi Aktina navida tegishlicha 72,6 ming dona/ga yoki 87,2 %; 74,2 ming dona/ga yoki 89,1% va 1,9 ming dona/ga yoki 2,2 % ga yuqori, 75,7 ming dona/ga yoki 90,9 % va 3,8 ming dona/ga yoki 4,2 % ga yuqori, 76,7 ming dona/ga yoki 92,1 % va 5,0 ming dona/ga yoki 5,6 % ga yuqori bo'lgan. Shuningdek, romen salatining Batsio navi 30-35 kunlik ko'chatlari turli ekish muddatlarida ekib parvarishlanganda ko'rsatkichlar tegishlicha 73,4 ming dona/ga yoki 88,1 %; 75,6 ming dona/ga yoki 90,8 % va 2,7 ming dona/ga yoki 3,1 % ga yuqori, 76,5 ming dona/ga yoki 91,8 % va 3,7 ming dona/ga yoki 4,2 % ga yuqori, 77,5 ming dona/ga yoki 93,0 % va 4,9 ming dona/ga yoki 5,6 % ga yuqori bo'lishi qayd etilgan.

Tajribalarda romen salati navlari turli ekish muddatlarda ekib o'stirilganda to'pbarglarning bo'yiga o'sish jadalligi o'rganilgan. Romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlarida o'simlik (to'pbarg) balandligi ekish muddatiga bog'liq holda 23,9 sm dan 32,1 sm gacha o'zgarib, eng baland bo'yli to'pbarglarning shakllanishi 15 iyulda ekilganda kuzatilib 29,2-32,1 sm, eng past bo'yli to'pbarglar shakllanishi 5 avgustda ekilgan muddatda qayd etilib o'rtacha 23,9 -25,9 sm ni tashkil etgan.

Tajribalarda romen salati navlari o'simliklarida ildiz shakllanishi va uning vaznining ekish muddatlariga bog'liqligi o'rganilgan. Romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlarida ildiz vazni ekish muddatiga bog'liq holda o'rtacha 19,4 g dan 31,4 g gacha shakllangan. O'rganilgan uchta navda ham eng og'ir vaznli ildiz shakllanishi ko'chatlar 5 iyulda nazorat ekish muddatida ekilganda qayd etilib, o'rtacha 28,8-31,4 g ni tashkil etgan. Eng yengil yoki kichik vaznli ildizlar shakllanishi esa ko'chatlar 8 avgustda dalaga ekilganda qayd etilib 19,4-22,1 g ni


tashkil etgan. Romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari ko'chatlarini ekish muddati har 10 kunga kechikkanda, bir tup o'simlikda shakllangan ildizlar vazni orasidagi farq o'rtacha har 10 kunda 1,4-2,7 g, 3,8-5,4 g, 9,2-9,3 g ga kamayib borishi aniqlangan.

Romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari takroriy ekinda turli ekish muddatlarida (5.VII n-t; 15.VII; 25.VII; 5.VIII) 30-35 kunlik ko'chatlardan o'stirilganda barg sonining shakllanishi navlarga tegishli 16,1-22,4 dona, 18,5-25,0 dona, 21,5-28,4 dona atrofida qayd etilgan. Tajribada o'rganilgan barcha navlarda serbargli o'simliklar 5 iyulda ekilgan nazorat variantda qayd etilib Sladkiy xrust navida 22,4 dona, Aktina navida 25,0 dona, Batsio navida 28,4 dona tashkil etgan. Ko'chatlar 15 iyulda ekilganda esa barglarning shakllanishi kamayib 20,08; 23,9; 28,1; dona yoki nazoratga nisbatan 1,6; 1,1; 0,3 donaga kam, 25 iyulda ekilganda 20,4; 23,4; 27,2 dona yoki nazorat variantga nisbatan 2,0; 1,6; 1,2 donaga kam, 5 avgustda ekilganda esa 16,1; 18,5; 21,5 dona yoki nazoratga nisbatan 6,3; 6,5; 6,9 donaga kam bo'lganligi kuzatilgan.

O'rganilgan navlarda barg diametri (eni) ekish muddatlariga bog'liq holda 5,8-6,9 sm; 6,7-7,5 sm; 6,8-8,8 sm gacha o'zgarib borgan. Romen salati o'simliklarda eng kichik diametrli barglar ekish muddatlari kechikkan sayin ya'ni 5 avgustda ko'chatlar ekilganda qayd etilib 5,8-6,8 sm ni tashkil etgan. Chunki, ushbu ekish muddatida ekilgan o'simliklarning vegetatsiya davri oxirida harorat tushib ketishi hisobiga barglar yetarli darajada shakllanmay qolgan. Eng erta ekilgan muddatda 5 iyulda ham barglar diametri nisbatan kichik 6,9-8,8 sm bo'lgan, chunki bu davrda kunduzi va kechasi havo haroratning birdek yuqoriligidir. Eng yirik barglar ko'chatlar 15 iyulda ekilganda qayd etilib, o'rtacha bir dona barg diametri navlararo 7,6-9,7 sm dan iborat bo'lgan.

Romen salati navlarining barg uzunligi ekish muddatlari va navning xususiyatidan kelib chiqib Sladkiy xrust navida 13,8-18,3 sm, Aktina navida 14,6-20,3 sm, Batsio navida 15,0-22,3 sm atrofida shakllangan. Tajribada barg uzunligi bo'yicha variantlar orasidagi eng katta farq Romen salatining Sladkiy xrust navida 4,5 sm, Aktina navida 5,7 sm, Batsio navida 7,3 sm bo'lganligi aniqlangan.

Romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari takroriy ekinda turli ekish muddatlarida (5.VII, 15.VII, 25.VII va 5.VIII) ekib o'stirilganda bir tup o'simlikda o'rtacha bir dona salatboshining diametri nav hamda ekish muddatlariga bog'liq holda 16,6 sm dan 26,4 sm gacha ortib borgan. Eng kichik salatbosh diametrini shakllanishi ko'chatlari 5 avgustda ekilganda kuzatilib tegishli 16,6-18,6 sm ni tashkil etgan. O'rganilgan navlarning ko'chatlari nazorat varianti 5 iyulda ekilganda 23,8-25,9 sm, 15 iyulda ekilganda 24,1-26,4 sm, ko'chatlar 25 iyulda ekilganda esa nisbatan katta 23,4-25,2 sm diametrda ega salatbosh shakllangan. Ekish muddati o'zgarishi salatbosh diametrining ortib borishiga ta'sir etgan. Chunki, eng kechki ekish muddatida yetishtirilgan salatbosh vazni boshqa ekish muddatlarida yetishtirilganga nisbatan Sladkiy xrust navida 7,2; 7,5 va 6,8 sm, Aktina navida 6,7; 6,9 va 6,3 sm, Batsio navida 7,3; 7,8 va 6,6 sm gacha farqlangan.



**2-rasm. Turli ekish muddatlarining salatbosh vaznining shakllanishiga ta'siri
(2023-2025 yy.)**

Tadqiqotlarimizda romen salati navlari takroriy ekinda turli ekish muddatlarida (5.VII n-t; 15.VII; 25.VII; 5.VIII) ekib parvarishlanganda Sladkiy xrust navida oʻrtacha bir dona salatbosh vazni 371,0-480,9 g, shundan tovarbop hosil 294,6-378,5 g yoki 74,5-79,4 %, erkin barglar 57,1-80,0 g yoki 15,4-18,8 %, shuningdek, salatbosh vaznidan 19,3-28,5 g yoki 5,2-6,7 % i ichki uzak ulushiga toʻgʻri kelgan. Romen salatining Aktina navida ushbu koʻrsatkichlar mos ravishda 376,5-503,5 g, 296,3-390,7 g yoki 74,0-78,7 %, 59,5-86,9 g yoki 15,8-19,1 %, 20,7-31,4 g, 5,5-6,9 % dan iborat boʻlgan. Hosil strukturasi shakllanishi Batsio navida ham yuqorida keltirib oʻtilgan qonuniyat asosida kuzatilib, mos ravishda 387,7-523,5 g; 303,2-403,6 g yoki 73,4-78,2 %, 62,0-94,2 g yoki 16,0-19,6 %, 22,5-33,6 g yoki 5,8-7,0 % ulushga ega boʻlishi aniqlangan.

Takroriy ekinda turli ekish muddatlarida romen salati navlari Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari koʻchatdan ekib yetishtirilganda oʻsimlik biokimyoviy tarkibi: quruq modda — 4,8-5,7 %; qand miqdori — 1,3-1,9 %; C vitamini - 21,1-24,7 mg/100 g; nitrat miqdori - 200,1-242,7 mg/100 g ni tashkil etgan. Romen salati tarkibidagi quruq modda va qand miqdorining nisbatan ortib borishi ekish muddatiga bogʻliq holda nazorat 5 va 15 iyullarda kuzatilib Sladkiy xrust navida 1,7 %; 23,4-23,9 %, Aktina navida 1,9 %, 21,1-21,8 %, Batsio navida 1,8 %; 22,4-22,9 % ni tashkil etgan. Ushbu navlar koʻchatlari 25 iyul va 5 avgustda ekilgan variantlarda esa salatboshlar tarkibida C vitamini miqdori koʻp tuplanishi qayd etilib navlarga tegishli 24,2-24,7; 24,2-24,8 va 23,8-24,3 mg/100 g dan iborat boʻlgan.

Tajribalarda romen salatining Sladkiy xrust navi 4 ta ekish muddatida 30-35 kunlik koʻchatlaridan ekib yetishtirilganda salatbosh hosildorligi 22,5 tonnadan 28,2 tonnagacha ortib borgan. Tajriba variantlari orasidagi 5,7 t/ga farq kuzatilib, hosildorlik nazorat variantga nisbatan 15 iyulda ekilganda 2,1 t/ga (9,1 %), 25 iyulda ekilganda 5,0 t/ga (21,5 %) yuqori, 25 avgustda ekilganda 0,7 t/ga (3,1%) kam boʻlganligi qayd etilgan. Romen salatining Sladkiy xrust navida eng kam hosildorlik

ko'chatlar 5 avgustda ekilganda kuzatilib o'rtacha 22,5 t/ga ni tashkil etgan. Romen salatining Aktina navi nazorat variant 5 iyulda ekilganda 24,4 t/ga hosil olingan, ushbu nav yuqori, 15 iyulda 26,7 t/ga 2,3 t/ga (9,4 %), 25 iyulda ekilganda 29,3 t/ga yoki nazoratga nisbatan 4,9 t/ga (20,1 %), 5 avgustda ekilganda 22,7 t/ga yoki nazoratga nisbatan 1,7 t/ga (7,0 %) kam salatbosh hosili yetishtirilgan. Romen salati Batsio navini takroriy ekinda 5 iyul nazorat, 15 iyul, 25 iyul va 5 avgustda ko'chatlaridan ekib parvarishlanganda maydon birligida 25,9 t/ga, 28,5 t/ga, 30,9 t/ga va 23,5 t/ga hosil olingan. Tajriba variantlari kesimida hosildorlik nazoratga nisbatan 2,6 t/ga (10,0 %), 5,0 t/ga (19,3 %) ga yuqori hamda 2,4 t/ga (9,3 %) kamligi bilan farqlangan. Tajriba variantlari orasida eng yuqori hosildorlik romen salatining 30-35 kunlik ko'chatlar 25 iyulda ekilganda qayd etilib 28,2-30,9 t/ga yoki nazoratga nisbatan 5,0-5,1 t/ga (19,3-21,5 %) ko'p hosil olingan.

Romen salatining Sladkiy xrust navi 5 iyulda ekilgan nazorat variantda maydon birligida 88,6 % yoki 20,5 t/ga tovar hosil olingan. Ushbu nav 15 iyulda ekilganda esa tovar hosil 90,1 % yoki 22,8 t/ga, nazoratga nisbatan 2,8 t/ga (11,2 %) yuqori, 25 iyulda ekilganda tovar hosil chiqimi variantlar orasida eng yuqori bo'lib 94,8 % yoki 26,8 t/ga, nazoratga nisbatan 6,3 t/ga (30,7 %) yuqori, 5 avgustda ekilganda esa tovar hosil 86,1 % yoki 19,3 t/ga, nazoratga nisbatan 1,2 t/ga (5,9 %) kam bo'lganligi aniqlangan. Romen salatining Aktina navida ham tovar hosil chiqimi bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilingan, ya'ni ekish muddatlariga mos ravishda 90,0 % yoki 22,0 t/ga; 91,6 % yoki 24,5 t/ga, nazoratga nisbatan 5,5 t/ga (11,4 %) yuqori, 95,4 % yoki 27,9 t/ga, nazoratga nisbatan 5,9 t/ga (26,8 %) yuqori, 87,0 % yoki 19,7 t/ga, nazoratga nisbatan 2,3 t/ga (10,5 %) kam bo'lgan. Batsio navida esa tovar hosil chiqimi boshqa navlar va variantlar orasida eng yuqori bo'lib 20,6-29,6 t/ga yoki 87,6-96,0 % ni tashkil etgan. Shuningdek, tajriba variantlariga tovar hosil chiqimi mos ravishda 90,7 % yoki 23,5 t/ga; 92,1 % yoki 26,2 t/ga; 96,0 % yoki 29,6 t/ga; 87,8 % yoki 20,6 t/ga dan iborat bo'lib, nazoratga nisbatan esa 2,7 t/ga (11,5 %) va 6,1 t/ga (25,9 %) yuqori hamda 2,9 t/ga (12,3 %) kam tovar hosil olingan.

Dissertatsiyaning **“Takroriy ekinda romen salatining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish sxemalarining ta'sirini o'rganish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida romen salatini takroriy ekinda turli ekish sxemalarida o'stirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.

Tadqiqotlar jarayonida fenologik va biometrik o'lchash olib borilganda Romen salati Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari turli ekish sxemalarida ekib yetishtirilganda ko'chatlarning tutuvchanligi nazorat (60x20 sm) variantga nisbatan 60x10 va 60x15 sm ekish sxemalarida navlar bo'yicha gektarida o'rtacha 103,1-156,2 yoki 25,9-78,6 ming donaga (0,1-0,8 foizga) ko'p bo'lganligi aniqlangan. 60x25 sm ekish sxemasida o'rganilgan romen salati Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlarida ko'chatlarning tutuvchanligi navlar bo'yicha gektarida o'rtacha 61,8-62,1 ming donani tashkil etgan yoki nazorat (60x20 sm) variantga nisbatan 15,4-15,5 ming donaga (0,1-0,2%) kam bo'lganligi kuzatilgan.

Turli ekish sxemalarida o'rganilgan Romen salatining Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari bo'yicha 7 chi bargning shakllanishi o'rtacha 14-18, salatboshning shakllanishi 22-27, salatboshning texnik yetilishi 48-56, hosilni yig'ish 51-59 kunni tashkil etganligi aniqlangan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlari eng tez ro'y berishi

60x10 sm ekish sxemasida qayd etilgan va nazorat (60x20 sm) variantga nisbatan navlar bo'yicha 7 chi bargning shakllanishi 12-14 yoki 1 kun, salatboshning shakllanishi 20-23 yoki 2-3 kun, salatboshning texnik yetilishi 45-49 yoki 3-5 kun, hosilni yig'ish 2-5 kun oldin sodir bo'lganligi qayd etilgan.

Romen salati navlarida o'simlik bo'yining balandligi ekish sxemalari bog'liq holda o'rtacha 20,4-28,9 sm ni tashkil etgan. O'rganilgan barcha navlarida eng baland bo'yli (24,9-28,7 sm) o'simliklar ko'chatlar 60x25 sm ekish sxemasida ekilganda aniqlangan. Eng past bo'yli o'simliklarning shakllanishi barcha navlarda 60x10 sm sxemada ekilganda qayd etilib, o'simlik bo'yining balandligi 20,4-23,8 sm yoki nazorat (60x20 sm) variantga nisbatan 3,7-3,8 sm past bo'lganligi kuzatilgan.

Turli ekish sxemalarida ko'chatidan ekib yetishtirilgan romen salati navlarida o'rtacha bir tup o'simlikda eng yuqori ildiz (30,4-33,7 g) vazni 60x25 sm ekish sxemasida kuzatilgan va nazorat (60x20 sm) variantga nisbatan 1,8-2,2 grammga yuqori ekanligi aniqlangan. Bir tup o'simlikda eng yengil ildiz (20,6-22,7 gramm) vaznining shakllanishi 60x10 sm sxemada ko'chatidan ekilganda qayd etilgan.

Takroriy ekin sifatida turli ekish sxemalarida romen salati Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari ko'chatdan ekib yetishtirilganda bir tup o'simlikda barglar soni o'rtacha 17,4-28,5 donani tashkil etganligi aniqlangan. Bir tup o'simlikda (navlar bo'yicha) eng serbarg (22,2-28,5 dona) o'simliklar 60x25 sm sxemada ekilganda qayd etilib, nazorat (60x20 sm) variantga nisbatan 1,3-1,7 donaga ko'p bo'lishini ta'minlagan. Navlar bo'yicha bir tup o'simlikda eng kam (17,4-23,4 dona) barg hosil bo'lishi 60x10 va 60x15 sm sxemada ko'chatdan ekilib yetishtirilgan variantlarda kuzatilgan.

Romen salati navlari takroriy ekinda turli ekish sxemalarida ekib o'stirilganda bir tup o'simlikda o'rtacha bir dona salatboshining diametri Sladkiy xrust navida 17,6-23,2 sm, Aktina navida 18,7-24,3 sm, Batsio navida esa 19,0 sm dan 25,3 sm gacha ortib borgan. Ekish sxemasiga bog'liq holda salat bosh diametri navlar bo'yicha 5,5; 5,6 va 6,3 sm gacha farqlangan.

Turli ekish sxemalarida romen salati navlari Sladkiy xrust, Aktina va Batsio navlari ko'chatdan ekib yetishtirilganda o'simlik biokimyoviy tarkibi: quruq modda 4,6-5,7 %; qand miqdori 1,3-2,0 %; C vitamini 19,7-26,1 mg/100 g; nitrat miqdori 161,4-237,8 mg/100 g. ni tashkil etgan. Romen salati tarkibidagi quruq modda va qand miqdorining nisbatan ortib borishi oziqlanish maydoniga bog'liq holda nazorat 60x20 va 60x5 sm sxemalarda kuzatilib Sladkiy xrust navida 5,2-5,4 %; 1,6-1,9 %, Aktina navida 5,3-5,7 %, 1,7-2,0 %, Batsio navida 5,4-5,6 %; 1,7-1,8 % ni tashkil etgan. Ko'chatlar 60x10 va 60x15 sm sxemalarda ekilgan variantlarda esa salatboshlar tarkibida C vitamini miqdori ko'p to'planishi qayd etilib navlarga tegishli 25,0-26,1; 24,2-24,8 va 24,7-25,1 mg/100 g dan iborat bo'lgan. Romen salati navlari takroriy ekin sifatida o'stirilganda ekish sxemasini kengayishi yoki oziqlanish maydonini ortib borishi bilan salatboshlar tarkibida nitrat miqdorini to'planishi nisbatan ko'p bo'lgani kuzatilib, navlar 60x20 sm va 60x25 sm sxemada ekilganda tegishli 212,7-231,4; 218,7-237,8; 206,5-227,4 mg/100 g ni tashkil etgan.

Tajribalarda romen salati ko'chatlari turli ekish sxemalarida ekib parvarishlanganda bir dona salatbosh vazni Sladkiy xrust navida 240,9-484,0 g,

Aktina navida 255,1-502,2 g, Batsio navida 266,1-526,3 g gacha ortib borgan. Shuningdek, Sladkiy xrust navida salatbosh umumiy vaznining 73,4-80,1 % i yoki 193,0-355,3 g i tovarbop hosil, 14,4-19,6 % i yoki 34,7-94,8 g i erkin barglar, 5,5-7,0 % i yoki 13,2-33,9 g ichki o'zak ulushiga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'chatlar Aktina navida 72,9-79,0 % yoki 201,5-366,1 g; 15,1-20,1 % yoki 38,5-100,9 g; 5,9-7,0 % yoki 15,1-35,2 g, Batsio navida esa 72,1-78,2 % yoki 208,1-379,5 g; 15,7-20,5 % yoki 41,8-107,9 g; 6,1-7,4 % yoki 16,2-38,9 g ni tashkil etgan. Salatbosh vazni ortgan sayin hosil strukturasidagi erkin barglar hamda ichki o'zak ulushi ham ortib borgan, natijada tovarbop salatbosh ulushi esa kamayganligi kuzatilgan, ekish sxemasi qisqarishi bilan aksincha bo'lgan.

1-jadval

Romen salatini turli ekish sxemalarida yetishtirilganda hosildorlik ko'rsatkichlari (2023-2025 yy.)

T/r	Ekish sxemasi	Hosildorlik, t/ga				Nazoratga nisbatan	
		2023 y	2024 y	2025 y	oʻrtacha	t/ga	%
Sladkiy xrust navi							
1.	60x10	25,5	26,8	26,0	26,1	3,2	113,9
2.	60x15	28,7	29,2	28,6	28,8	5,9	125,8
3.	60x20 (n-t)	22,1	24,8	21,8	22,9	-	100,0
4.	60x25	20,4	22,8	20,7	21,3	-1,6	93,0
EKIF ₀₅ (t/ga)		0,85	0,87	0,88			
Sx(%)		3,5	3,4	3,6			
Aktina navi							
5.	60x10	27,8	28,2	27,0	27,6	4,1	117,4
6.	60x15	29,9	30,1	29,7	29,9	6,4	127,3
7.	60x20 (n-t)	22,3	25,1	23,1	23,5	-	100,0
8.	60x25	21,6	23,9	21,1	22,2	-1,3	94,5
EKIF ₀₅ (t/ga)		0,93	0,91	0,88			
Sx(%)		3,7	3,4	3,5			
Batsio navi							
9.	60x10	29,0	29,2	28,0	28,7	3,9	115,7
10.	60x15	31,9	32,1	31,7	31,9	7,1	128,6
11.	60x20 (n-t)	24,9	25,4	24,1	24,8	-	100,0
12.	60x25	23,0	23,4	22,9	23,1	-1,7	93,1
EKIF ₀₅ (t/ga)		0,97	0,91	0,88			
Sx(%)		3,6	3,3	3,3			

